

YANGI O'ZBEKISTON: 2026

CONFERENCES.UZ


ILMIY TADQIQOTLAR

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



George Stephenson.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORUJIY OLIY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TADIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL
№90



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 1-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-1**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 90-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 70 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қараишлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)



7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдураҳимов Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни -

Phd Воҳидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.

www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ОЧИҚЛИК ВА ШАФФОФЛИК — ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИНИНГ АСОСИЙ ПОЙДЕВОРИ

Абдулла Ҳусанович Сафаров

Термиз туманлараро
иқтисодий суди раиси

Аннотация: Ушбу мақолада давлат харидлари тизимида очиқлик ва шаффофлик принципларининг ҳуқуқий асослари ҳамда уларнинг коррупцияга қарши курашиш ва соғлом рақобат муҳитини яратишдаги аҳамияти таҳлил қилинган. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунининг мазмун-моҳияти, махсус электрон порталларнинг роли ҳамда ушбу тизимнинг иқтисодий суд амалиёти ва шартномавий муносабатлардаги ўрни ёритилган.

Калит сўзлар: давлат харидлари, очиқлик, шаффофлик, рақобат муҳити, электрон ахборот портали, давлат буюртмачиси, коррупцияга қарши кураш, иқтисодий суд.

Сўнгги йилларда республикамызда ҳар бир соҳада олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар замирида ягона олий мақсад мужассам: у ҳам бўлса — фуқаролар ва жамият ҳаётида адолат мезонларини яқуний ҳамда мустаҳкам тарзда қарор топтиришдир.

Ана шундай муҳим қадамлардан бири сифатида Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинганлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Ушбу Қонун давлат буюртмачиларининг хўжалик фаолиятини юритиш чоғида амалга ошириладиган давлат харидларини, шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг бюджет тизими маблағлари, бюджет ташкилотларида ташкил этилган бюджетдан ташқари бошқа жамғармалар маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган харидларни қонун ҳужжатларида назарда тутилган тартибда амалга оширилишини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солади.

Ушбу Қонуннинг моҳиятида очиқлик ва шаффофлик принципи энг муҳим жиҳатлардан бири бўлиб ҳисобланади. Лойиҳа ёки давлат буюртмаларининг махсус электрон ахборот порталида, очиқ савдолар шаклида амалга оширилиши тизимнинг самарадорлиги ва коррупциядан холилигини таъминлашда юксак аҳамият касб этади.

Давлат харидларининг очиқлиги ва шаффофлиги тегишли давлат органларига, харид субъектларига ва кенг жамоатчиликка харидлар тўғрисидаги маълумотлардан қонунчиликда белгиланган тартибда тўлиқ, ўз вақтида, эркин ва бепул фойдаланиш имкониятини беради.



Бу жараён харид қилиш тартиб-таомилларига доир ҳужжатлар ва ҳисоботларни тизимли равишда махсус ахборот порталига жойлаштириш ҳамда уларнинг бут сақланишини таъминлаш орқали кафолатланади.

Очиқлик ва шаффофлик давлат бюджетидан молиялаштириладиган шартномавий мажбуриятларни бажарувчи хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида соғлом рақобат муҳитини юзага келтиради.

Бу эса ҳар бир иштирокчига ўз салоҳиятини реал тарзда намойиш этиш, иқтисодий жиҳатдан энг мақбул ва сифатли таклифларни илгари суриш ҳамда давлат аҳамиятига молик лойиҳаларни лозим даражада бажариш учун тенг имкониятлар эшигини очади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2023 й.
- Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-684-сон, 22.04.2021 й. *(янги таҳрири)*.
- Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси. – Т.: Адолат, 2018 й. *(ўзгартириш ва қўшимчалар билан)*.



XUSUSIY MULKNING HUQUQ VA KAFOLATLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISHNI TA'MINLASH

Karimov Jahongir To'ymurotovich

*Surxondaryo viloyat sudi
fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlashning nazariy-huquqiy asoslari, uning konstitutsiyaviy kafolatlari hamda mazkur huquq buzilgan taqdirda yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti va olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilgan. Maqolada xususiy mulk huquqi daxlsizligini buzganlik uchun zararlarni qoplash, neustoyka undirish va mulkdorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan. Xususan, ko'chmas mulk huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini raqamlashtirish, zararlarni baholash mezonlarini aniqlashtirish, sud amaliyoti samaradorligini oshirish hamda mulk huquqlarini himoya qilishning qo'shimcha kafolatlarini joriy etish masalalari asoslangan.

Kalit so'zlar: xususiy mulk huquqi, mulk huquqi daxlsizligi, mulkdor huquqlari, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, zararlarni qoplash, boy berilgan foyda, neustoyka, konstitutsiyaviy kafolatlar, ko'chmas mulk, huquqiy himoya.

Jahonda xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash jamiyat hayotining ajralmas va zarur shartidir. "Xalqaro mulk huquqlari indeksi" (IPRI)ning 2025-yildagi hisoboti 125 davlatni qamrab olib, bu jahon aholisining 93,4% va jahon yalpi ichki mahsulotining 97,5% ni tashkil etadi. Bunda o'rtacha ko'rsatgich 5,18 ballga pasayib, bu 2024-yilga nisbatan 0,53% kamayganini ko'rsatadi¹. Yoki bo'lmasa, "Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nodavlat tashkilotining 2024-yil uchun reyting hisobotidagi "Qonunlarga rioya qilish" indikatori natijalariga ko'ra, yer yuzida yashovchi 6,3 milliard aholining xususiy mulk huquqi daxlsizligi u yoki bu tarzda poy-mol etilgan². Mazkur tendensiyalar **xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlash** borasida o'zgarib borayotgan bozor talablariga moslashtirish va rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlari daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu zaylda, mamlakatimizda xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini ta'minlash kafolatlarini mustahkamlovchi huquqiy asoslar ham kuchayib bormoqda.

Jumladan, xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini ta'minlash kafolatlari bu avvalo, mulkdorlar huquqlari va ularning mulkini himoya qilishga qaratilgan

¹<https://propertyrightsalliance.org/news/available-online-2024-international-property-rights-index/>

²<https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/2024/Uzbekistan/Regulatory%20>



huquqiy qoidalar va vositalar majmui sanalib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida ushbu kafolatlar asosan “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solingan.

Xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini ta‘minlash kafolatlari o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- xususiy mulk daxlsizligi;*
- mulkdorlar o‘rtasidagi teng huquqlilik;*
- xususiy mulk huquqining muddatsizligi;*
- mulkdorlar huquqlarini amalga oshirishda davlat organlarining aralashuvidan himoya³.*

Shunday qilib, xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini ta‘minlash kafolatlari mulk egalari manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlik faoliyatini xavfsiz yuritish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan huquqiy tartibga solishning muhim jihatidir. Ushbu normalar xususiy mulk institutlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga va iqtisodiy munosabatlarda barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradi.

Xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirish mavzusi ham huqushunos olimlar o‘rtasida munozara uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini buzganlik uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik, avvalambor, zararlarni qoplashni o‘z ichiga qamrab olib, zararlar haqiqiy zarar va boy berilgan foyda sifatida tasniflanishi mumkin, shuningdek, neustoyka qo‘llash imkoniyatini ham nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga binoan, zararlar ikki asosiy turga bo‘linadi:

haqiqiy zarar — bu huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi;

boy berilgan foyda — bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 260-moddasiga asosan, neustoyka — qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi sanalib, neustoyka ham ikkita shaklga bo‘linadi:

Jarima — qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to‘laydigan va, qoida tariqasida, qat’iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka.

Penya — qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka⁵.

³<https://lex.uz/docs/-2055680>

⁴<https://lex.uz/docs/-111189>

⁵<https://lex.uz/docs/-111189>



Bu o'rinda, "fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur bo'ladi:

a) zarar mavjudligi — jabrlangan tomon haqiqiy zarar yoki boy berilgan foydaning mavjudligini isbotlashi kerak;

b) noqonuniy harakatlar — javobgar tomonning harakatlari noqonuniy bo'lishi kerak (chunonchi, shartnoma shartlarini buzish);

c) sababiy bog'lanish — javobgar harakatlari va yetkazilgan zarar o'rtasida bog'lanishni o'rnatish zarur;

*d) zarar keltiruvchining aybdorligi — aksariyat hollarda javobgar tomonning aybi mavjud bo'lishi talab etiladi"*⁶.

Bundan kelib chiqadiki, xususiy mulk huquqlari daxlsizligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik haqiqiy zarar (zarar va boy berilgan foyda)ni qoplash va neustoyka qo'llash imkoniyatini o'z ichiga oladi, bu esa, jabrlangan tomonga o'z huquqlarini va manfaatlarini tiklashga yordam beradi.

*Professor, y.f.d. M.Aminjonovanning fikricha, "...majburiyatlarini buzganlik uchun yetkazilgan zararni qoplash va nustoykani undirish mulkiy javobgarlik shakli bo'lganligi sababli buning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, zararni qoplash javobgarlik chorasi (shakli) sifatida qonunda nazarda tutilsa ham, uning miqdori shu majburiyatni bajarmaganlik natijasida yetkazilgan zarar miqdoriga bog'liq bo'lib, haqiqatda isbotlangan bo'lishi lozim. Demak, zararni haqiqatda ham mavjudligini isbotlash vazifasi zarar ko'rgan sug'urtalovchi yoki sug'urta qildiruvchining zimmasiga yuklanadi" va biz ham ushbu fikrlarning o'rinli ekani e'tirof etamiz"*⁷.

Bizningcha, xususiy mulk huquqlari daxlsizligini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirish bir nechta asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Birinchidan, haqiqiy zarar va boy berilgan foyda qonunchiligimizda aniqroq belgilanishi kerak. Bu zararlarni undirish jarayonida anglashmovchiliklar hamda suiiste'molliklarni oldini olishga yordam beradi. Misol uchun, boy berilgan foydani baholash uchun qat'iy muayyan mezonlar belgilanishi lozim, shundagina uning miqdori bo'yicha nizolar ehtimolini keskin kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, fuqarolik huquqbuzarliklari bilan bog'liq sud jarayonlarini yaxshilash zarur. Xususan, xususiy mulk huquqlarini buzish bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish, sudyalarni fuqarolik ishlarining xususiyatlariga o'rgatish, shunda ular dalillarni yanada samarali baholay olishlari va zarar miqdorini aniqlash imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

Uchinchidan, da'vogarlar kompensatsiyani tezroq va osonroq olishlari uchun neustoykani undirish tartiblarini soddalashtirish imkoniyatini ko'rib chiqish

⁶Е.Е.Богданова. Научная статья "Возмещение убытков в договорных обязательствах", Журнал Вектор развития юридической науки., 2015 г. №10.,-26 с.

⁷М.А.Аминjonova., Sug'urta shartnomasida taraflarning majburiyati va javobgarligi masalalari., y.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati,-Toshkent., O'zR. Milliy gvardiyasi harbiy-texnik instituti., 2018 yil.-22-23-b.



zarur. Bu ba'zi jarayonlarni elektron raqamlashtirish yoki oldindan himoya choralari joriy etishni o'z ichiga qamrab olishi mumkin.

To'rtinchidan, agar javobgarlarning harakatlari da'vogarlarning xususiy mulk huquqlarini buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, u holda fuqarolik huquqida javobgarlarga nisbatan "ayblilik prezumpsiyasi" tamoyilini joriy etish orqali da'vogar uchun uning zimmasidagi aybni isbotlash yukini salmoqli kamaytirishga yordam bergan bo'lardi.

Beshinchidan, xususiy mulk egalari huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha mexanizmlarni yaratish, masalan:

- mulkni yo'qotish yoki zararlanish xavfini sug'urtalash;
- mulk huquqlarining buzilishidan jabrlanganlarga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari kabilar.

Aytishimiz mumkinki, fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirish qonunchilikda o'zgarishlar, sud amaliyotini yaxshilash va xususiy mulk huquqlarini himoya qilish uchun yangi mexanizmlarni joriy etishni talab etadi. Mazkur chora-tadbirlar jismoniy va nodavlat yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqlari daxlsizligi sohasidagi manfaatlarini himoya qilish samarali tizimini yaratishga imkon beradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi MJtKning fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish bilan bog'liq bo'lgan 45-moddasi tartibida ko'rib chiqilgan ishlar salmog'i so'zimizga yaqqol dalildir. Fikrimizcha, mazkur modda dispozitsiyasi "(turar joyga unda istiqomat qiluvchilarning xohish-irodasiga xilof ravishda noqonuniy tarzda kirish, mansabdor bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa) kodeks qabul qilingan davrdagi, ya'ni 1994-yildagi tahrirda qolib ketgan bo'lib, u shaxslarning xususiy mulk huquqi daxlsizligini himoya qilishning hozirgi zamon talablarini inobatga olmagan"⁸.

Ushbu moddada "turar joyga noqonuniy tarzda kirish" deganda mazkur turar joyga huquqi mavjud bo'lmagan shaxs tomonidan unda istiqomat qiluvchilarning xohish-irodasiga xilof ravishda (masalan, turar joyning mulkdori yoki egasi yo'q paytda ushbu turar joydan vaqtincha foydalanuvchi shaxsning ixtiyoriga qarshi va boshqa holatlarda) bostirib kirishi tushuniladi, huquqbuzarlik faqatgina qasddan sodir etiladi hamda huquqbuzarlik subyekti mansabdor shaxs bo'lmagan muomalaga layoqatli 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxslar bo'lishadi"⁹.

Agarda, mazkur huquqbuzarlik zo'rlik ishlatgan holda sodir etilsa, unda qonunbuzarning xatti-harakatlari O'zbekiston Respublikasi JKning 142-moddasi "(turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirish)"¹⁰ga binoan malakalanadi.

Sharhlanayotgan modda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktga va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga to'la mos keladi. Masalan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 17-moddasida hech kimning uy-joy daxlsizligiga o'zboshimcha yoki g'ayriqonuniy tarzda tajovuz qilish

⁸<https://lex.uz/docs/-97664>

⁹Комментарии к кодексу Республики Узбекистан об административной ответственности. Ответственный редактор за выпуск У.Т.Таджиханов -Ташкент."Адолат", Академия МВД Республики Узбекистан, 1997, с.42.

¹⁰<https://lex.uz/docs/-111453>



mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatilishini tushunish lozim (jabrlanuvchini itarib yuborish, qo'lini qayirish, kaltaklash, do'pposlash, uning badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish)"¹¹.

Ta'kidlash zarurki, ushbu modda eski tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi asosida shakllangan edi, unga ko'ra har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalashtirish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega, hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas"¹².

Bu konstitutsiyaviy norma keyinchalik yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida biroz boshqacharoq talqinda berildi, unga muvofiq har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega, hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas"¹³.

Shu ma'noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning so'z yuritilayotgan moddasida "turar joy" tushunchasi kengroq ma'noda "uy-joy" tariqasida mustahkamlanganligi yuridik jihatdan to'g'riroqdir.

Tadqiqot natijalari xususiy mulk huquqining daxlsizligi huquqiy davlat va erkin bozor iqtisodiyotining muhim shartlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. O'zbekistonda mazkur sohadagi huquqiy kafolatlar sezilarli darajada takomillashtirilgan bo'lsa-da, amaliyotda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, mulk huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash, boy berilgan foydani aniqlash hamda mulkdorlarning huquqlarini sud tartibida himoya qilish bilan bog'liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Bu holat xususiy mulk huquqlarining daxlsizligini ta'minlash sohasidagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xususiy mulk huquqlarini samarali himoya qilish uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, zararlarni qoplash va boy berilgan foydani hisoblash mezonlarini aniq belgilash, neustoyka undirish tartiblarini soddalashtirish, xususiy mulk huquqlari bilan bog'liq sud ishlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan kadastr va davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimlarini joriy etish mulkdorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan amaldagi qonunchilikni takomillashtirish doirasida xususiy mulk huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararlarni aniqlash va qoplashning yagona huquqiy mezonlarini belgilash, xususiy mulk ob'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning elektron va soddalashtirilgan tartiblarini joriy etish, shuningdek, mulkdorlarning huquqlarini himoya qilishning qo'shimcha kafolatlarini

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳ (қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашр 2016 йил 1 ноябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) махсус қисм/ М.Х. Рустамбоев. -Т.: "Адолат" 2016. -169-б.

¹² <https://lex.uz/docs/-20596?ONDATE=09.02.2021%2001>

¹³ <https://lex.uz/docs/-6445145>



nazarda tutuvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar xususiy mulk institutining barqaror rivojlanishiga, mulkdorlarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda mamlakatda investitsiyaviy jozibadorlik va huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: Adolat, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasining «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni.
6. Aminjonova M. Majburiyatlarni buzganlik uchun mulkiy javobgarlikning nazariy va amaliy masalalari // Yuridik fanlar jurnali. – Toshkent, 2022.
7. International Property Rights Index (IPRI) 2025 Report. Property Rights Alliance. – Washington D.C., 2025.
8. World Justice Project Rule of Law Index 2025. – Washington D.C., 2025.
9. Universal Declaration of Human Rights. United Nations, 1948.
10. International Covenant on Civil and Political Rights. United Nations, 1966.
11. Raxmonqulov H.R. Mulk huquqi va uni himoya qilish muammolari. – T.: TDYU nashriyoti, 2021.
12. Imomov N.F. Fuqarolik huquqida zararni qoplash instituti. – T.: Yurist Media Markazi, 2020.
13. Abdullaev A.A. Xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari. – T.: Fan, 2022.



**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ
ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

**O'ZBEKISTON-YAPONIYA MUNOSABATLARINING GUMANITAR
O'LCHOVI: TA'LIM, FAN VA «YUMSHOQ KUCH» OMILI**

Azizov S.Sh.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Toshkent, O'zbekiston

O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos jihati shundaki, gumanitar hamkorlik ikkala tomon tomonidan ham ikkinchi darajali yo'nalish sifatida emas, balki uzoq muddatli strategik sheriklikni shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi dasturlar orqali ikki mamlakat jamiyatlari o'rtasida barqaror aloqalar yaratildi, bu esa o'zaro ishonch va siyosiy muloqotning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Mazkur tezislarning maqsadi – 1991–2025-yillarda o'zbek-yapon munosabatlarning gumanitar o'lchovini «yumshoq kuch» konsepsiyasi [1] nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat.

Hamkorlikning institutsional tayanchi Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) hisoblanadi. 1993-yildan boshlab O'zbekiston Yaponiyaning rasmiy taraqqiyot yordami (ODA) tizimiga kiritildi va yuzlab o'zbekistonlik mutaxassislar davlat boshqaruvi, transport, energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va sanoat sohalari bo'yicha Yaponiyada malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi [2]. Ilmiy-texnikaviy hamkorlik seysmologiya, orol atrofidagi arid hududlar ekologiyasi, Qizilqum cho'li tabiiy muhitini kompleks o'rganish hamda o'simliklar va mikroorganizmlar genetik resurslarini saqlash kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oldi. Hamkorlik o'zaro xarakter kasb etdi: Kioto universiteti yosh tadqiqotchilari O'zbekiston ilmiy muassasalarida arid hududlar ekologiyasi bo'yicha stajirovka o'tadilar, Tokiodagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti universiteti bilan sheriklik aloqalari o'rnatildi.

Ta'lim sohasida alohida o'rinni JDS (Japanese Grant Aid for Human Resource Development Scholarship) stipendiya dasturi egalladi: uning doirasida yuzlab davlat xizmatchilari va yosh mutaxassislar Yaponiyaning yetakchi universitetlarida magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil oldilar. 2024-yil holatiga ko'ra, jami 2500 dan ortiq o'zbekistonlik mutaxassis Yaponiyada o'qish va stajirovkadan o'tgan bo'lib, bu ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun salmoqli kadrlar zaxirasini yaratdi [3].

Gumanitar hamkorlikning yana bir muhim instituti – O'zbekiston-Yaponiya inson resurslarini rivojlantirish markazi bo'lib, u yapon tilini o'rganish, madaniy tadbirlar, biznes-treninglar va menejment bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning



asosiy maydoniga aylandi. 2001-yildan buyon Markazning biznes-kurslarini 20 mingdan ortiq kishi tamomlagan. Yapon menejment modeli – umrbod yollash, konsensus asosida qaror qabul qilish, «o‘z vaqtida» tizimi va xodimning ijodiy salohiyatini ochishga yo‘naltirilganlik – O‘zbekistonda alohida qiziqish uyg‘otdi. Bunda madaniy muvofiqlik omili muhim rol o‘ynadi: jamoaviylik va o‘zaro majburiyatlarga tayangan yapon boshqaruv uslubi mahalla an‘analarida aks etgan sharqona, jamoaviy turmush tarziga yevro-amerika individualistik modelidan ko‘ra yaqinroq deb baholandi [4].

2016-yildan keyin Yangi O‘zbekistonning «ochiq» tashqi siyosati sharoitida gumanitar hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Yirik investitsiya loyihalari kadrlar tayyorlash dasturlari, boshqaruv kompetensiyalarini uzatish va akademik almashinuvlarning kengayishi bilan uyg‘un holda amalga oshirilmoqda. 2025-yil 20-dekabrda Tokioda bo‘lib o‘tgan «Markaziy Osiyo + Yaponiya» muloqotining birinchi sammiti yakunida qabul qilingan Tokio deklaratsiyasida «inson resurslarini rivojlantirish» hamkorlikning uchta ustuvor yo‘nalishidan biri sifatida belgilandi: JDS, JISPA va ADB-JSP stipendiya dasturlarini kengaytirish, «Bir qishloq – bir mahsulot» harakati, sog‘liqni saqlash tizimlarini mustahkamlash hamda Markaziy Osiyo fuqarolarini yapon universitetlarida tayyorlashni ko‘paytirish nazarda tutildi [5]. Shuningdek, deklaratsiya munitsipalitetlararo, parlamentlararo va akademik almashinuvlarni, barqaror turizm va madaniyat sohasidagi hamkorlikni kengaytirishni qayd etdi.

Turizm gumanitar aloqalarning istiqbolli yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda: Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy-madaniy merosi, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Farg‘ona kabi shaharlarning o‘ziga xos jozibasi yapon sayyohlari oqimining barqaror o‘shishini ta‘minlamoqda. Yaponiya jamoatchiligida O‘zbekistonga nisbatan qiziqish nafaqat qadimiy me‘moriy yodgorliklar, balki o‘zbek xalqining samimiyligi va mehmondo‘stligi bilan ham bog‘liqdir.

Xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, gumanitar hamkorlik o‘zbek-yapon strategik sherikligining ijtimoiy poydevorini tashkil etadi. Ko‘p yillik ta‘lim dasturlari, JICA faoliyati, akademik almashinuvlar, yapon tilini o‘rganish va mutaxassislar tayyorlash ikki mamlakat o‘rtasida barqaror kasbiy va ijtimoiy aloqalarni shakllantirdi. Siyosiy va iqtisodiy hamkorlik chuqurlashib borgan sari aynan insonlararo aloqalar xalqaro konyunktura o‘zgarishlaridan qat’i nazar strategik sheriklikning barqarorligini ta‘minlovchi omilga aylanmoqda. Bu esa «yumshoq kuch» vositalarining O‘zbekiston–Yaponiya munosabatlaridagi uzoq muddatli ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: Public Affairs, 2004. – 191 p.



2. Добринская О.А. Роль официальной помощи развитию в стратегии Японии в Центральной Азии // Вестник МГИМО-Университета. – 2020. – Т. 13, № 3. – С. 86–111.
3. Дмитриева М.О. Япония – Центральная Азия: гуманитарный трек развития сотрудничества // Постсоветские исследования. – 2022. – Т. 5, № 5. – С. 474–481.
4. Палкова А., Буковскис К., Шамилов М. Публичная дипломатия Японии в Центральной Азии на примере Узбекистана и Казахстана // Вестник КазНУ. Серия: международные отношения и международное право. – 2020. – № 92(4). – С. 4–12.
5. Tokyo Declaration of the Summit of the “Central Asia plus Japan” Dialogue. Tokyo, 20 December 2025 // Ministry of Foreign Affairs of Japan. – URL: <https://www.mofa.go.jp/files/100954362.pdf>



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

ILMIY DISKURS FENOMENINING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI
TALQINI: STRUKTURAVIY, KOGNITIV VA PRAGMATIK TAHLIL

Zakirova Xilola Abduraxmanovna
TAQU, “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası
Dotsent, x.zakirova@taqu.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikning eng muhim institutsional ko‘rinishlaridan biri hisoblangan “ilmiy diskurs” tushunchasi va uning o‘ziga xos lisoniy tabiati har tomonlama tadqiq etiladi. Maqolada ilmiy diskurs tahlilining nazariy-metodologik asoslari, jahon va o‘zbek tilshunosligida ushbu terminning konseptual interpretatsiyasi hamda uning matn va nutq tizimi bilan o‘zaro munosabati, ilmiy diskursning funksional-pragmatik va kognitiv xususiyatlari, uning janriy arxitektonikasi hamda muloqot ishtirokchilarining maqom-rol munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ilmiy diskurs, antropotsentrizm, matn, nutq, institutsional diskurs, pragmatik, kognitiv tilshunoslik, lisoniy shaxs, lakonizm, janr.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga kelib jahon tilshunosligida jiddiy paradigmatlashuv jarayoni sodir bo‘ldi. Struktural va tizimli-strukturaviy tilshunoslik doirasida tilni faqat “o‘zida va o‘zi uchun” (F. de Sossyur iborasi bilan aytganda) o‘rganish tamoyillari asta-sekin o‘z o‘rnini antropotsentrik paradigmalariga bo‘shatib berdi. Antropotsentrizm tilni lisoniy jamoa, madaniyat, jamiyat va inson tafakkuri bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etishni taqozo qiladi. Mazkur yo‘nalishning shakllanishi tilshunoslikda pragmatik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistik va lingvokulturologiya kabi yangi sohalarni yuzaga keltirdi. Ushbu sohalarning barchasini birlashtiruvchi, ularning tadqiqot ob‘ekti va metodi sifatida xizmat qiluvchi fundamental tushuncha esa “diskurs” hisoblanadi.

Uzoq yillar davomida til tizimining eng oliy sathi sifatida matn qaralgan bo‘lsa, zamonaviy kommunikativ va funksional tilshunoslikda matnning o‘zi ham diskursning bir funksional bo‘lagi, uning statik ko‘rinishi sifatida baholanmoqda. Diskurs jonli, ijodiy, ijtimoiy va madaniy kontekstga ega bo‘lgan murakkab muloqot hodisasidir. Uning tarkibida alohida nufuzga ega bo‘lgan ilmiy diskurs (scientific discourse) fanning rivojlanishi, yangi bilimlarning shakllanishi va uzatilishini ta‘minlovchi asosiy vositadir. Biroq, ko‘plab tadqiqotlarda hanuzgacha ilmiy matn bilan ilmiy diskurs chegaralari, ularning pragmatik va kognitiv determinantlari to‘liq differensiyalanmagan.

Tadqiqot doirasida ob‘ektivlik va haqqoniylikni ta‘minlash maqsadida muayyan ilmiy metodlar majmuasidan foydalanilgan bo‘lib, unda G‘arb, rus va o‘zbek tilshunoslik maktablarining diskursga oid fundamental nazariyalari qiyosiy-kontrastiv tahlil vositasida solishtirildi, ilmiy diskursning sotsiolingvistik komponentlari, ishtirokchilari va janriy tarkibi V.I. Karasik modeliga muvofiq



strukturaviy-funksional modelyatsiya asosida tizimlashtirildi hamda intent-analiz orqali muallifning ilmiy nutq zamiriga yashirgan tub maqsadi, sub'ektiv intilishi va adresatga o'tkazmoqchi bo'lgan psixologik hamda intellektual ta'siri o'rganildi; bunda jahon va o'zbek tilshunosligidagi fundamental ilmiy nashrlar, monografiyalar va dissertatsiyalar matnlari tadqiqotning empirik materialini tashkil etdi. O'tkazilgan tizimli tahlillar natijasida diskurs va matn tushunchalarining differensial lisoniy belgilari ilmiy sferaga nisbatan aniqlashtirildi va tizimlashtirildi.

Ilmiy diskurs professor V.I. Karasik tasnifiga ko'ra institutsional (maqomga yo'naltirilgan) diskurs hisoblanadi. Unga ko'ra, ilmiy-institutsional diskursning arxitektonik modeli uchta fundamental komponent — maqom-rol munosabatlariga asoslangan **ishtirokchilar** (olim-professor va tadqiqotchi), rasmiy makon va vaqt chegaralarini belgilovchi **xronotop** (auditoriya, laboratoriya, ilmiy kengash zali) hamda aniq akademik qoliplarga tayangan **nutqiy janrlar** (monografiya, maqola, dissertatsiya taqrizi) majmuasi orqali reallashadi. Mazkur komponentlar tizimi ilmiy muloqotning shunchaki statik matnlar yig'indisi emas, balki qat'iy institutsional mezonlar va ijtimoiy rollar doirasida kechuvchi tizimli, dinamik va jonli jarayon ekanligini isbotlaydi.

Jahon va o'zbek tilshunosligida ilmiy diskurs tabiatini o'rganishda turli maktablar konsepsiya va yondashuvlari shakllangan bo'lib, Rossiya tilshunoslik maktabi vakili N.D. Arutyunova unga ekstralingvistik-pragmatik, sotsial-madaniy hamda psixologik omillar bilan birgalikdagi izchil matn va hayotga singdirilgan nutq sifatida ta'rif beradi, Golland tilshunosi Teun A. van Deyk esa uni keng va tor ma'noga ajratib, keng ma'noda muloqot ishtirokchilari, ularning sotsial rollari va madaniy fonini qamrab olishini ta'kidlaydi. Mahalliy tilshunoslikda professor Shahriyor Safarov diskurs tahlilida shunchaki til birliklarini sanash emas, balki so'z va gaplar ortida turgan freym, ssenariy va konseptlar kabi kognitiv tuzilmalarni ochib berish birlamchi vazifa ekanligini qayd etsa, o'zbek olimlari tomonidan diskurs atamasining evolyutsion bosqichlarida aniqlangan sakkiz xil ma'nosidan "fikrning ma'lum bir ijtimoiy, g'oyaviy yoki mafkuraviy jihatdan cheklangan turi" hamda "ma'lum bir kasbiy sferaga tegishli nutqiy faoliyat shakli" kabi talqinlar bevosita ilmiy diskursning chegaralarini belgilaydi.

Ilmiy diskurs prinsiplarining lisoniy misollar asosida isbotlanishida muloqotning o'ta lakonizm va qat'iy mantiqiylikka asoslanishi struktural tilshunoslik tamoyillarining antropotsentrik paradigmalariga o'rin bo'shatishi haqidagi parcha misolida intent-analiz va kognitiv tahlilga tortilgan. Ushbu tahlilda "paradigmalarning o'rin bo'shatishi" sotsial ssenariy (freym) asosida ifodalangan lisoniy vosita ekanligi, muallif shunchaki tarixiy faktni bayon etmay, balki o'quvchida antropotsentrizm yo'nalishi ustuvorligiga ilmiy ishonch hosil qilish (persuazivlik) pragmatik strategiyasini qo'llayotganligi hamda F. de Sossyurning klassik iqtibosidan foydalanish orqali ilmiy diskursning "avtoritetga tayanish" qoidasi va fanning tarixiy xotirasi (intertekstualizlik) kabi kognitiv tuzilmalari namoyon bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Jadval 1. Matn va diskurs tushunchalarining differentsial lisoniy belgilari qiyosiy tahlili



Tahlil mezonlari	Matn (Text)	Diskurs (Discourse)
Dinamiklik holati	Statik, tugallangan lisoniy mahsulot	Dinamik, davom etayotgan lisoniy jarayon
Kontekstga bog'liqlik	Kontekstda tashqarida ham o'rganilishi mumkin	Kontekstsiz (ekstralingvistik omillarsiz) mavjud bo'lolmaydi
Tizimdagi o'rni	Til tizimining oliy sathi (struktura)	Nutq va muloqotning oliy sathi (funktsiya)
Komponentlar tarkibi	Faqat lisoniy (lingvistik) birliklar	Lingvistik + ekstralingvistik, kognitiv, sotsial omillar
O'lchov va chegara	Grafik yoki akustik jihatdan chegaralangan	Chegarasi muloqot maqsadiga ko'ra o'zgaruvchan

O'tkazilgan fundamental nazariy va amaliy tahlillar, **ilmiy diskurs** statik matn tushunchasidan o'zining dinamikligi, jarayonlilik hamda ekstralingvistik omillarni qamrab olishi bilan tubdan farq qilib, fanning jonli ijtimoiy makonda reallashuvi (T.A. van Deyk, V.I. Karasik) sifatida namoyon bo'ladi; sotsiolingvistik tabiatiga ko'ra u qat'iy muloqot normalari, maqom-rol tizimi va o'ziga xos janriy xususiyatlarga tayanuvchi **institutsional diskurs** turi sifatida lisoniy shaxsning nutqiy xulq-atvorini ilmiy etika talablari doirasida muvofiqlashtirib turishi hamda unda axborot uzatishni tejamlashtirish (lakonizm) va qat'iy konseptual freymlarga (kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika terminologik tizimiga) tayanish lisoniy shaxsning intellektual salohiyati va kommunikativ strategiyalarini yuzaga chiqaruvchi asosiy funktsional omil bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь; гл. ред. В. Н. Ярцева. – М.: Сов. Энциклопедия, 1990. – С. 136-137.
2. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. - Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5-20.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 288 b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
5. Harris, Z. (1952). Discourse Analysis. Language, 28(1), 1-30.
6. Van Dijk, T. A. (1997). "Discourse as Structure and Process". London: Sage Publications.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**XORAZM VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISHDA
INFRATUZILMA RIVOJLANISHINING IQTISODIY AHAMIYATI**

Sultanova Aziza Baxtiyor qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Tadqiqot Xorazm viloyatida infratuzilma rivojlanishining investitsiya faolligiga iqtisodiy ta'sirini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qildi. Unda transport, energetika, suv ta'minoti va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlaridagi o'zgarishlar investitsiya hajmi bilan o'zaro bog'liq holda baholandi. Natijalar infratuzilmaviy salohiyatning mustahkamlanishi hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirganini va sanoat rivojlanishini qo'llab-quvvatlaganini ko'rsatdi. Tadqiqot hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqdi.

Kalit so'zlar: infratuzilma, investitsiya faolligi, Xorazm viloyati, iqtisodiy rivojlanish, transport infratuzilmasi, muhandislik tarmoqlari, investitsiya siyosati.

Аннотация

Исследование проанализировало экономическое значение развития инфраструктуры для повышения инвестиционной активности Хорезмской области на основе официальных статистических данных. Были рассмотрены изменения в транспортной, энергетической, коммунальной и инженерной инфраструктуре во взаимосвязи с динамикой инвестиций. Полученные результаты подтвердили, что укрепление инфраструктурного потенциала повысило инвестиционную привлекательность региона и способствовало развитию промышленности. По итогам исследования были разработаны практические рекомендации по совершенствованию региональной инвестиционной политики.

Ключевые слова: инфраструктура, инвестиционная активность, Хорезмская область, экономическое развитие, транспортная инфраструктура, инженерные сети, инвестиционная политика.

Abstract

The study examined the economic importance of infrastructure development in increasing investment activity in the Khorezm region using official statistical data. It evaluated changes in transport, energy, water supply, and engineering infrastructure together with investment dynamics. The findings confirmed that stronger infrastructure capacity enhanced the region's investment attractiveness and supported industrial development. The study demonstrated the positive relationship between infrastructure improvement and investment growth and proposed practical



recommendations for improving regional investment policy and ensuring sustainable economic development.

Keywords: infrastructure, investment activity, Khorezm region, economic development, transport infrastructure, engineering networks, investment policy.

KIRISH

Hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va sarmoyaviy jozibadorligini ta'minlashda infratuzilma tarmoqlari muhim tayanch vazifasini bajaradi. Yo'l va transport tizimlari, energiya hamda suv ta'minoti, kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlari ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini kafolatlaydi, tovar hamda xizmatlarni bozorlarga yetkazish xarajatlarini kamaytiradi va investorlar uchun tavakkalchilik darajasini pasaytiradi. Xalqaro tadqiqotlarda infratuzilma sifati bilan milliy hamda hududiy raqobatbardoshlik o'rtasida bevosita ijobiy aloqa mavjudligi tasdiqlangan [1]. Kapital oqimining hududga yo'nalishi ko'p jihatdan mavjud infratuzilmaning holati va uni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining izchilligiga bog'liq bo'ladi.

Xorazm viloyati ushbu bog'liqlikni amaliy jihatdan yaqqol namoyon etadigan hudud sifatida ajralib turadi. Viloyatda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2010-yildagi 416,9 mlrd. so'mdan 2024-yilda 15 624,1 mlrd. so'mga yetdi; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar esa shu davrda 264,6 ming so'mdan 7 757,7 ming so'mgacha ko'tarildi [2]. Ushbu ko'rsatkichlarning izchil o'sishi qurilish faoliyati va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining kengayishi bilan hamohang kechdi. Sarmoyalar oqimining bunday sur'atlari infratuzilmaviy salohiyatning mustahkamlanishi hududda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratganini ko'rsatadi.

Amaliy nuqtayi nazardan infratuzilmaga yo'naltirilgan sarmoyalarni hududiy investitsiya siyosati bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazm viloyati misolida bu jarayonning miqdoriy tavsifini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqish infratuzilma va investitsiya faolligi o'rtasidagi aloqaning tabiatini aniqlash hamda hududiy rivojlanishning kelgusi yo'nalishlarini asoslash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Infratuzilmaning investitsiya faolligiga ta'siri iqtisodiy nazariyada davlat kapitali va xususiy sektor unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik orqali asoslanadi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan infratuzilmaviy ob'ektlar xususiy kapitalning marjinal unumdorligini oshiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun poydevor yaratadi [3]. Rivojlanayotgan bozorlarda transport, energetika, raqamli aloqa va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining takomillashuvi mahsuldorlikni oshirib, bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va xorijiy sarmoyani jalb etishning muhim omiliga aylanadi [4]. Xorazm viloyatida kuzatilgan tendensiyalar mazkur nazariy qoidalarning hududiy amaliyotda tasdiqlanishini ko'rsatadi.

Viloyatda investitsiya, qurilish va muhandislik infratuzilmasi tarmoqlarining o'zaro bog'liq rivojlanishi 1-jadval ma'lumotlarida aks etadi.

1-jadval

**Xorazm viloyatida investitsiyalar, qurilish faoliyati va muhandislik infratuzilmasi tarmoqlarining rivojlanishi (mlrd. so'm)[2].**

Ko'rsatkich (mlrd. so'm)	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2024-yil
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (jami)	416,9	1531,5	5391,8	15624,1
Qurilish ishlari	282,7	1174,7	2856,8	11503,9
Elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash	51,0	212,3	348,3	845,8
Suv ta'minoti va kommunal xizmatlar	0,9	3,6	86,4	199,1

1-jadval ma'lumotlari asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2010-2024-yillarda 37 baravardan ortiq oshganini ko'rsatadi. Ayni davrda qurilish ishlari hajmi 282,7 mlrd. so'mdan 11 503,9 mlrd. so'mga, elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash tarmog'i mahsuloti 51,0 mlrd. so'mdan 845,8 mlrd. so'mga, suv ta'minoti va kommunal xizmatlar tarmog'i esa 0,9 mlrd. so'mdan 199,1 mlrd. so'mga yetdi [2]. Muhandislik infratuzilmasi tarmoqlarining bunday jadal kengayishi umumiy investitsiya hajmining ortib borishi bilan parallel kechgani ikki jarayon o'rtasidagi mustahkam ijobiy aloqani dalillaydi.

Infratuzilma tarmoqlarining o'sishi hududning sarmoyaviy jozibadorligini kuchaytiruvchi bir necha kanal orqali namoyon bo'ladi. Energiya va suv ta'minoti tizimlarining kengayishi sanoat korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini barqarorlashtiradi; transport va qurilish faoliyatining jadallashuvi esa yangi ishlab chiqarish maydonlari va logistika imkoniyatlarini shakllantiradi. Xorazm viloyatida sanoat mahsuloti hajmining 2016-yildagi 2,8 trln. so'mdan 2024-yilda 28,4 trln. so'mga oshishi aynan shu infratuzilmaviy asosning mustahkamlanishi bilan izohlanadi [2]. Hududning iqtisodiy salohiyati va mintaqaviy raqobatbardoshligini oshirishda infratuzilma omilining markaziy o'rin egallashi mahalliy tadqiqotlarda ham e'tirof etilgan [5].

So'nggi yillarda viloyatda infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xorazm viloyatining yo'l va suv infratuzilmasini yaxshilash hamda hududni zamonaviy qiyofaga keltirish uchun 1 milliard 600 million dollar mablag' ajratilishi rejalashtirildi; 2025-yilda hududga 1 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb etildi [6]. Bunday yo'naltirilgan sarmoyalar hududning transport-logistika va kommunal tizimlarini yangilash orqali kelgusi investitsiya oqimlari uchun barqaror zamin hozirlaydi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyati misolida infratuzilma rivojlanishi bilan investitsiya faolligining oshishi o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligi rasmiy statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlandi. Energiya, suv ta'minoti va transport-qurilish tarmoqlariga yo'naltirilgan sarmoyalarning izchil kengayishi hududda umumiy investitsiya hajmining o'sishiga, sanoat salohiyatining mustahkamlanishiga va sarmoyaviy jozibadorlikning kuchayishiga xizmat qildi. Bu tendensiya infratuzilmaviy salohiyatni rivojlantirishni hududiy investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.



Olib borilgan ko'rib chiqish asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, hududiy investitsiya dasturlarini infratuzilma ustuvorliklari bilan uyg'unlashtirish, ya'ni yangi ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirishda energiya, suv va transport ta'minotining oldindan rejalashtirilishini ta'minlash;

ikkinchidan, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yangilashda davlat va xususiy sektor hamkorligi mexanizmlaridan kengroq foydalanish orqali moliyaviy manbalarni diversifikatsiyalash;

uchinchidan, viloyat tumanlari o'rtasidagi infratuzilmaviy ta'minlanganlik farqlarini kamaytirib, investitsiya oqimlarini nisbatan kam qamrab olingan hududlarga yo'naltirish;

to'rtinchidan, transport-logistika salohiyatini rivojlantirish orqali hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish va tashqi sarmoyani jalb etish shart-sharoitlarini yaxshilash.

Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi Xorazm viloyatining investitsiya faolligini yanada oshirishga va uning iqtisodiy salohiyatini uzoq muddatli istiqbolda mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Palei T. Assessing the Impact of Infrastructure on Economic Growth and Global Competitiveness // Procedia Economics and Finance. - 2015. - Vol. 23. - P. 168-175. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115003226>

2. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari (rasmiy statistik ma'lumotlar). <https://www.xorazmstat.uz/>

3. Munnell A. H. Policy Watch: Infrastructure Investment and Economic Growth // Journal of Economic Perspectives. - 1992. - Vol. 6, No. 4. - P. 189-198. <https://pubs.aeaweb.org/doi/10.1257/jep.6.4.189>

4. Zondo C. The Role of Infrastructure in Driving Economic Development in Emerging Markets // Journal of Economics and Economic Education Research. - 2024. - Vol. 25, No. S6. - P. 1-3. <https://www.abacademies.org/articles/the-role-of-infrastructure-in-driving-economic-development-in-emerging-markets-17368.html>

5. Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatini baholash va uning mintaqa raqobatdoshligiga ta'siri // Innovations in Science and Technologies. - 2026. - Vol. 3, No. 3. - B. 96-103. <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/1496>

6. Xorazmni zamonaviy qiyofaga keltirish, yo'l va suv infratuzilmasini yaxshilashga 1 mlrd 600 mln dollar ajratiladi // Gazeta.uz. - 2026-yil 4-mart. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/04/xorazm/>



XORAZM VILOYATINING INVESTITSIYA RIVOJLANISHIGA INSTITUTIONAL OMILLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Sultanova Aziza Baxtiyor qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Tadqiqot Xorazm viloyati investitsiya rivojlanishiga institutsional omillarning ta'sirini ekonometrik yondashuv asosida baholadi. Unda rasmiy statistika va xalqaro ilmiy manbalarga tayangan holda investitsiyalar hajmi hamda moliyalashtirish tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Natijalar institutsional islohotlar investitsiya faolligini rag'batlantirgani va xorijiy kapital oqimining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. Tadqiqot hududiy investitsiya siyosatini baholash va monitoring qilish uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdi.

Kalit so'zlar: institutsional omillar, investitsiya rivojlanishi, ekonometrik modellash, xorijiy investitsiyalar, Xorazm viloyati, investitsiya siyosati, regressiya modeli.

Аннотация: Исследование оценило влияние институциональных факторов на инвестиционное развитие Хорезмской области с использованием эконометрического подхода. На основе официальной статистики и международных научных источников был проведён анализ динамики инвестиций и структуры их финансирования. Полученные результаты подтвердили, что институциональные реформы способствовали активизации инвестиционной деятельности и увеличению притока иностранного капитала. По итогам исследования были предложены практические рекомендации по совершенствованию оценки и мониторинга региональной инвестиционной политики.

Ключевые слова: институциональные факторы, инвестиционное развитие, эконометрическое моделирование, иностранные инвестиции, Хорезмская область, инвестиционная политика, регрессионная модель.

Abstract

The study evaluated the impact of institutional factors on the investment development of the Khorezm region using an econometric approach. Based on official statistics and international scientific sources, it analyzed changes in investment volume and financing structure. The findings confirmed that institutional reforms stimulated investment activity and contributed to increased foreign capital inflows. The study also developed practical recommendations for assessing and monitoring regional investment policy and demonstrated the applicability of econometric modeling for evaluating institutional influences on investment performance.



Keywords: institutional factors, investment development, econometric modeling, foreign investment, Khorezm region, investment policy, regression model.

KIRISH

Xorazm viloyati iqtisodiyotining so'nggi o'n besh yildagi rivojlanishida investitsiya jarayonlari yetakchi o'rin egalladi. Viloyatda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2010-yildagi 416,9 milliard so'mdan 2024-yilda 15 624,1 milliard so'mga, ya'ni 37,5 barobar oshdi; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar esa 264,6 ming so'mdan 7757,7 ming so'mgacha, qariyb 29 barobar ko'paydi [1]. Bunday yuksalish faqat pul oqimlarining kengayishi bilan emas, balki investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar, kafolatlar va tashkiliy tuzilmalarning yangilanishi bilan bog'liq.

2017-yildan e'tiboran mamlakat miqyosida yuritilgan iqtisodiy islohotlar valyuta bozorini liberallashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etish orqali xorijiy kapital uchun qulay muhit yaratdi [2]. Yalpi asosiy kapital jamg'armasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2017-2019-yillarda 23,0 foizdan 36,8 foizga ko'tarilgani ushbu o'zgarishlarning miqyosini ko'rsatadi [2]. Xorazm viloyati ana shu umummilliy jarayonning hududiy ko'rinishini o'zida aks ettiradi.

Amaliy nuqtai nazardan asosiy savol quyidagicha: viloyat investitsiyalarining tez o'sishini qanday institutsional omillar harakatlantirmoqda va bu omillarni miqdoriy jihatdan qanday baholash mumkin? Tesis viloyat investitsiya rivojlanishini institutsional omillar bilan bog'lovchi ekonometrik-tahliliy yondashuvni asoslashni va uni rasmiy statistika asosida amaliy tekshirishni maqsad qildi.

ASOSIY QISM

Institutsional yondashuvning nazariy o'zagi D. Nort tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda institutlar insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar sifatida ta'riflanadi va ular tranzaksiya xarajatlari hamda rag'batlantirish tuzilmasi orqali iqtisodiy natijadorlikka ta'sir ko'rsatadi [3]. Investitsiya qarorlari noaniqlik sharoitida qabul qilinadi; qoidalar barqaror va shaffof bo'lgan muhitda esa bu noaniqlik pasayadi va kapital kirimi rag'batlanadi.

Empirik adabiyotda institutsional sifat va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab mamlakatlar misolida o'rganilgan. Panel ma'lumotlariga asoslangan tadqiqotlar korrupsiyani jilovlash, tartibga solish sifati va qonun ustuvorligi kabi institutsional ko'rsatkichlar xorijiy investitsiyalar oqimiga musbat ta'sir qilishini tasdiqlaydi [4]. Institutsional sifatning ta'siri savdo ochiqligi, sanoat tarkibining takomillashuvi va texnologik innovatsiya kanallari orqali kuchayishi ham ko'rsatilgan [5].

Institutsional omillarni miqdoriy baholashda ko'p omilli regressiya modeli qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday modelda tobe o'zgaruvchi sifatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (yoki uning logarifmi), erkin o'zgaruvchilar sifatida esa moliyalashtirish manbalarining ulushlari - davlat byudjeti, bank kreditlari va chet el investitsiyalari - hamda islohot bosqichlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar olinadi [6]. Model quyidagi umumiy ko'rinishga ega:



$$\ln(INV_t) = \beta_0 + \beta_1 \cdot FDI_t + \beta_2 \cdot BUDGET_t + \beta_3 \cdot BANK_t + \varepsilon_t,$$

bun yerda INV_t - t yilida o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi; FDI_t , $BUDGET_t$, $BANK_t$ - mos ravishda chet el investitsiyalari, davlat byudjeti va bank kreditlarining moliyalashtirishdagi ulushlari; ε_t - tasodifiy xato.

Modelning empirik asosini viloyat bo'yicha moliyalashtirish manbalarining tarkibiy o'zgarishi tashkil etadi. 1-jadval bu siljishni yaqqol namoyon etadi.

1-jadval

Xorazm viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi¹⁴ (jami hajmga nisbatan, foizda)

Yil	Korxona va aholi o'z mablag'lari	Davlat byudjeti	Bank kreditlari va qarz mablag'lari	Chet el investitsiyalari va kreditlari
2010	63,4	4,7	11,1	9,8
2015	67,5	6,8	13,4	2,7
2018	49,1	5,0	25,0	8,5
2020	41,2	8,5	14,5	32,0
2022	48,3	9,2	7,7	32,3
2023	43,6	6,5	1,8	47,4
2024	31,4	6,1	2,6	59,1

1-jadval ma'lumotlari institutsional muhitning o'zgarishi moliyalashtirish tuzilmasini tubdan qayta shakllantirganini ko'rsatadi. Chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 2010-yildagi 9,8 foizdan 2024-yilda 59,1 foizga ko'tarildi, korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi esa 63,4 foizdan 31,4 foizga qisqardi. Bank kreditlarining ulushi 2018-yilda 25,0 foizga yetgach, keyingi yillarda 2,6 foizgacha pasaydi - bu bank tizimining investitsiyalarni moliyalashtirish salohiyati hali to'liq ochilmaganini bildiradi.

Viloyat ma'lumotlari asosida chet el investitsiyalari ulushi bilan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi o'rtasidagi bog'liqlik hisoblanganda, 2010-2024-yillar uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,92 ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich xorijiy kapital ishtiroki kuchaygan davrlarda investitsiya hajmining ham izchil o'sganini tasdiqlaydi va institutsional omillarning viloyat investitsiya dinamikasidagi belgilovchi rolini miqdoriy jihatdan namoyon etadi.

Bu bog'liqlikning ortida aniq institutsional o'zgarishlar turadi. 2019-yilda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining tashkil etilishi hamda maxsus iqtisodiy hududlar tarmog'ining kengayishi investorlar uchun huquqiy aniqlikni oshirdi [7]. Qoraqalpog'iston va Xorazm hududida chet el ishtirokidagi korxonalar uchun ustav kapitalining quyi chegarasi imtiyozli tarzda belgilangani mintaqaviy darajadagi rag'batlantirishning amaliy misolidir [7]. 2017-yildagi islohotlar rejadan tashqari tekshiruvlarni bekor qilish, biznesni ro'yxatdan o'tkazishni soddalashtirish va Biznes ombudsmani institutini joriy etish orqali tadbirkorlik muhitini yengillashtirdi

¹⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi [1].



[8]. Xalqaro moliya institutlarining qo‘llab-quvvatlashi ham investorlar himoyasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan qonunchilik bazasini mustahkamladi [9].

Milliy miqyosda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 2016-yilga nisbatan sezilarli darajada o‘sgani viloyat darajasidagi ijobiy tendensiyani to‘ldiradi [10]. Xorazm viloyatining investitsiya tuzilmasidagi siljish, demak, umummilliy institutsional islohotlarning hududiy natijasi sifatida talqin etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatining 2010-2024-yillardagi investitsiya rivojlanishi institutsional muhitning izchil yangilanishi bilan uyg‘un kechdi. O‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 37,5 barobar oshdi, moliyalashtirish tarkibida esa chet el investitsiyalarining ulushi hal qiluvchi darajaga - 59,1 foizga yetdi. Institutsional omillar bilan investitsiya hajmi o‘rtasidagi kuchli musbat bog‘liqlik ($r = 0,92$) ekonometrik yondashuvning viloyat sharoitida amaliy qiymatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar chiqildi. Birinchidan, investorlar huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik amaliyotini barqarorlashtirish va shartnomaviy munosabatlarda shaffoflikni oshirish xorijiy kapital oqimini yanada mustahkamlaydi. Ikkinchidan, bank kreditlari ulushining pasayishi hisobga olinib, mahalliy moliya-kredit tizimining investitsiyalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, xorijiy investitsiyalarni energetika bilan bir qatorda qayta ishlash sanoati va yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar tarmoqlariga yo‘naltirish viloyat iqtisodiyotining barqarorligini oshiradi. To‘rtinchidan, taklif etilgan ekonometrik model hududiy investitsiya siyosatini muntazam monitoring qilish va institutsional o‘zgarishlar samarasini baholash uchun amaliy vosita sifatida qo‘llanishi mumkin.

Xorazm viloyati tajribasi institutsional islohotlar hududiy investitsiya salohiyatini ro‘yobga chiqarishning asosiy shartlaridan biri ekanini tasdiqlaydi va bu yo‘nalishdagi keyingi rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi. <https://stat.uz>
2. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan: Trends and impacts of FDI in Uzbekistan. 2024. https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en/full-report/trends-and-impacts-of-fdi-in-uzbekistan_1794e285.html
3. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. <https://www.cambridge.org/core/books/institutions-institutional-change-and-economic-performance/AAE1E27DF8996E24C5DD07EB79BBA7EE>
4. Sabir S., Rafique A., Abbas K. Institutions and FDI: evidence from developed and developing countries. Financial Innovation, 2019, 5(8). <https://jfin-swufe.springeropen.com/articles/10.1186/s40854-019-0123-7>



5. The impact of institutional quality on foreign direct investment: empirical analysis based on mediating and moderating effects. *Economic Research-Ekonomska Istraživanja*, 2022.
<https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/1331677X.2022.2134903>
6. Faruq A.T.M.O. The Determinants of Foreign Direct Investment (FDI): A Panel Data Analysis for the Emerging Asian Economies. arXiv:2307.07037, 2023.
<https://arxiv.org/pdf/2307.07037>
7. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan: Strengthening Uzbekistan's legal and policy framework for sustainable investment. 2025. https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en/full-report/strengthening-uzbekistan-s-legal-and-policy-framework-for-sustainable-investment_d481a224.html
8. U.S. Department of State. 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. 2024. <https://2021-2025.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/>
9. World Bank. Uzbekistan's Reforms for Private Sector Growth, Social Protection, and Climate Action to Benefit from World Bank Support. 2024. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/10/04/uzbekistan-s-reforms-for-private-sector-growth-social-protection-and-climate-action-to-benefit-from-world-bank-support>
10. World Bank. Foreign direct investment, net inflows (BoP, current US\$) - Uzbekistan.
<https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.CD.WD?locations=UZ>



KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA XORIJ MEKANIZMLARI

Xakimov Akbar Anvarovich

Namangan davlat texnika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

akbarjon_hakimov@mail.ru

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznesda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etishda xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan zamonaviy mexanizmlar tahlil qilingan. Xususan, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash, kafillik tizimlari, venchur moliyalashtirish, raqamli investitsiya platformalari hamda investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy yondashuvlari o'rganilgan. Shuningdek, xorij tajribasi asosida kichik biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va investitsiya muhitini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, investitsiya faoliyati, xorij tajribasi, investitsiya mexanizmlari, davlat qo'llab-quvvatlashi, raqamli platforma, imtiyozli kreditlash.

Bugungi kunda kichik biznes iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim o'rin egallaydi. Mazkur sohaning barqaror rivojlanishi investitsiya faoliyatining qay darajada samarali tashkil etilganiga bevosita bog'liq. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, Singapur kichik biznesni rivojlantirish va investitsiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha samarali tajribaga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, raqamli platformalar orqali moliyalashtirish jarayonlarini soddalashtirish, innovatsion loyihalarini rag'batlantirish hamda kichik biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan mexanizmlar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Natijada investitsiya muhitining jozibadorligi oshib, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va investitsion faolligi sezilarli darajada yuksalgan.

Mazkur maqolada aynan Singapur tajribasi misolida kichik biznesda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribaning asosiy jihatlari o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari hamda kichik biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.



Singapur ham, kichik biznesda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etishda o'ziga xos yondashuvni qo'llaydi. Singapur hukumati kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks tizim yaratgan bo'lib, uning markazida Enterprise Singapore davlat agentligi turadi¹⁵.

Investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmi bu Enterprise Financing Scheme (EFS) - Korxonalarni moliyalashtirish sxemasi hisoblanadi. Ushbu sxema orqali kichik korxonalar aylanma mablag'lar, asosiy fondlar, loyihalar va savdo operatsiyalari uchun kreditlar olishlari mumkin. Sxemaning muhim jihati davlat riskning 50 foizini, yosh korxonalar yoki qiyin bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun esa 70 foizini o'z zimmasiga olishidir¹⁶.


2025-yil 7-oktabrda Enterprise Singapore Biznesni moslashtirish grantini (Business Adaptation Grant - BizAdapt) joriy etdi. Grant AQShning yangi tarifi siyosati ta'siriga uchragan korxonalarga o'z faoliyatini yangi sharoitga moslashtirish va ta'minot zanjirini mustahkamlash uchun ajratiladi. 2024-yil sentabr oyida Enterprise Singapore va Google Cloud kichik korxonalarda sun'iy intellektdan foydalanishni qo'llab-quvvatlash dasturini boshladi. Gemini for Google Workspace Program (SMEs) doirasida Gemini litsenziyasi xarajatlarining 50 foizigacha 12 oy davomida qoplab beriladi¹⁷. Dasturda qatnashgan Big Tiny, IKARI Services va Koufu kompaniyalari raqobatchilarni tahlil qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash, marketing materiallarini tayyorlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish ishlarini ancha tez va samarali bajara olgan. Shuningdek, Google for Startups Accelerator: AI First Singapore dasturining birinchi bosqichida 25 ta startup sun'iy intellekt asosidagi mahsulotlarini ishlab chiqib, bozorga chiqargan. Ikkinchi bosqichga 35 ta startup qabul qilinadi va ularga dastur yakunida 350 ming AQSh dollarigacha Google Cloud kreditlari beriladi¹⁸.

¹⁵ Enterprise Singapore. About Us. <https://www.enterprisesg.gov.sg/about-us>

¹⁶ Enterprise Singapore. FAQ: Enterprise Financing Scheme. <https://www.enterprisesg.gov.sg/resources/all-faqs/enterprise-financing-scheme>

¹⁷ Enterprise Singapore & Google Cloud. (2024). EnterpriseSG and Google Cloud Partner to Help Startups and SMEs in Singapore Accelerate AI Adoption and Innovation. https://www.enterprisesg.gov.sg/-/media/esg/files/media-centre/media-releases/2024/september/enterprisesg-and-google-cloud-partner-to-helpstartups-and-smes-in-singapore_20sep2024.pdf

¹⁸ Google for Startups. (2024). Google for Startups Accelerator: AI First Singapore. <https://startup.google.com/accelerator/singapore/>



1-rasm. Singapur investitsion ekotizimining tuzilishi¹⁹

Singapur modelining asosiy ustunligi davlatning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi faol ishtirokidir. Barcha dasturlar Enterprise Singapore agentligi orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu model zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro bozorga chiqishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslashishi bilan ajralib turadi²⁰.

Singapur tajribasini O'zbekistonda qo'llashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Jumladan, Singapurning hududi kichik va boshqaruv tizimi soddaroq, O'zbekiston esa hududi katta va hududlar o'rtasida farqlar mavjud. Shuningdek, Singapur xalqaro moliyaviy markaz hisoblanadi, O'zbekiston esa bu darajaga hali erishmagan. Shu bilan birga, Singapur iqtisodiyoti jahon bozori bilan yanada chuqur integratsiyalashgan. Biroq, yagona davlat agentligi orqali boshqarish, riskni taqsimlash va texnologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini O'zbekiston sharoitida ham qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznesda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish iqtisodiy o'sish, tadbirkorlikni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Xorij tajribasi,

¹⁹ Tadqiqot materiallari asosida uallif ishlanmasi

²⁰ Alakbarov, A. & Hasanov, A. (2024). Leading Practices in MSME Financing: A Systematic Review. *Futurity Economics&Law*, 4(3), 194-213. <https://doi.org/10.57125/FEL.2024.09.25.12>



xususan, Singapur amaliyoti kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda zamonaviy va samarali mexanizmlarni qo'llash yuqori natijalar berishini tasdiqlaydi. Davlat tomonidan yaratilgan qulay institutsional muhit, raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi, imtiyozli moliyalashtirish dasturlari hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimi investitsion faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar asosida O'zbekiston sharoitida ham kichik biznesni investitsiyalar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish hamda investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy usullarini keng qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, investitsion faollikni rag'batlantiradi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alakbarov, A. & Hasanov, A. (2024). Leading Practices in MSME Financing: A Systematic Review. *Futurity Economics&Law*, 4(3), 194-213. <https://doi.org/10.57125/FEL.2024.09.25.12>
2. Enterprise Singapore. About Us. <https://www.enterprisesg.gov.sg/about-us>
3. Enterprise Singapore. FAQ: Enterprise Financing Scheme. <https://www.enterprisesg.gov.sg/resources/all-faqs/enterprise-financing-scheme>
4. Enterprise Singapore & Google Cloud. (2024). EnterpriseSG and Google Cloud Partner to Help Startups and SMEs in Singapore Accelerate AI Adoption and Innovation. https://www.enterprisesg.gov.sg/-/media/esg/files/media-centre/media-releases/2024/september/enterprisesg-and-google-cloud-partner-to-helpstartups-and-smes-in-singapore_20sep2024.pdf
5. Google for Startups. (2024). Google for Startups Accelerator: AI First Singapore. <https://startup.google.com/accelerator/singapore/>



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION MENEJMENT VA MOLİYAVIY TEKNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

kalmuratovb@mail.ru

Salieva Aziza Dauletbay Qizi

tayanch doktorant

azizasalieva.1507@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalarning integratsiyasi hamda ularning agrar sohani rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli boshqaruv va moliyaviy texnologiyalar orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, innovatsion menejment, moliyaviy texnologiyalar, Fin tech, agrar soha.

Abstract. This thesis analyzes the integration of innovative management and financial technologies in the agricultural sector in the context of the digital economy and their role in the development of the agricultural sector. Issues of increasing the efficiency of agricultural production through digital management and financial technologies are also highlighted.

Keywords: digital economy, agriculture, innovation management, financial technologies, FinTech, agricultural sector.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida boshqaruv tizimlari asosan an‘anaviy yondashuvlarga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Bu holat resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi, moliyaviy oqimlarning shaffof emasligi hamda qaror qabul qilish jarayonining sustligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalar integratsiyasi mavjud muammolarni hal etuvchi muhim omil sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish hamda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmonida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalarning qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida qo‘llanilishi boshqaruv jarayonlarining samaradorligiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, agrar sohada an‘anaviy boshqaruv yondashuvlari bilan raqamli texnologiyalar va FinTech yechimlari integratsiyalashgan boshqaruv



tizimlarini taqqoslash zarurati yuzaga keladi. Mazkur tahlil qishloq xo‘jaligi subyektlarida boshqaruv, moliyaviy va ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelayotgan farqlarni aniqlash hamda integratsiyaning amaliy samaralarini baholashga qaratilgan.

Ushbu maqsadda qishloq xo‘jaligida innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalar joriy etilmagan an‘anaviy boshqaruv tizimlari hamda ularning integratsiyasi asosida faoliyat yuritayotgan xo‘jaliklar o‘rtasida taqqoslovchi tahlil amalga oshirildi. Tahlil jarayonida rejalashtirish jarayoni, moliyaviy oqimlar shaffofligi, moliyalashtirishga kirish imkoniyatlari, risklarni boshqarish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi kabi asosiy ko‘rsatkichlar tanlab olindi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida integratsiyaning qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishiga ta‘siri baholandi.

1-jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalarning integratsiyasi boshqaruv va moliyaviy jarayonlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, raqamli platformalar asosida tashkil etilgan rejalashtirish va monitoring tizimlari qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirib, real vaqt rejimida aniq ma‘lumotlardan foydalanish imkonini yaratadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, FinTech yechimlari joriy etilmagan an‘anaviy boshqaruv tizimlarida moliyaviy oqimlar shaffofligi past bo‘lib, kredit va moliyalashtirish resurslariga kirish murakkabligicha qolmoqda. Aksincha, innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalar integratsiyalashgan xo‘jaliklarda elektron to‘lov tizimlari va onlayn moliyalashtirish mexanizmlari orqali moliyaviy barqarorlik darajasi yuqori ekanligi kuzatiladi.

1-jadval

Qishloq xo‘jaligida innovatsion menejment va FinTech integratsiyasining tahliliy bahosi²¹

Tahlil mezonlari	An‘anaviy boshqaruv (FinTechsiz)	Innovatsion menejment va FinTech integratsiyasi
Rejalashtirish jarayoni	Qo‘lda, kechikkan ma‘lumotlar asosida	Raqamli platformalar asosida, real vaqt rejimida
Moliyaviy oqimlar shaffofligi	Past, nazorat cheklangan	Yuqori, elektron hisob-kitoblar orqali
Kredit va moliyalashtirishga kirish	Murakkab va sekin	Onlayn kreditlash va raqamli scoring orqali tez
Risklarni boshqarish	Asosan intuitiv yondashuv	Ma‘lumotlarga asoslangan tahlil
Operatsion xarajatlar	Yuqori	Optimallashtirilgan, xarajatlar qisqaradi
Qaror qabul qilish tezligi	Sekin	Tezkor va asoslangan

²¹ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi



Moliyaviy barqarorlik	Beqaror	Barqarorlik darajasi yuqori
Ishlab chiqarish samaradorligi	O'rtacha	Yuqori

Shuningdek, tahlil natijalari integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarida risklarni boshqarish jarayoni ma'lumotlarga asoslangan yondashuv orqali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda agrar mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada innovatsion menejment va FinTech integratsiyasi qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion menejment va FinTech integratsiyasi natijasida qishloq xo'jaligi subyektlarida qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi va real vaqt rejimidagi moliyaviy hamda ishlab chiqarish ma'lumotlariga asoslanadi. Bu esa risklarni kamaytirish, hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarida resurslar sarfini qisqartirishga olib keladi. Shu bilan birga, integratsiya darajasi past bo'lgan xo'jaliklarda raqamli texnologiyalardan foydalanish samarasi cheklangan bo'lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida FinTech texnologiyalaridan foydalangan holda menejment jarayonlarini raqamlashtirish moliyaviy rejalashtirish, investitsiya faoliyati va monitoring tizimlarini takomillashtirish imkonini beradi. Xususan, raqamli to'lov tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va onlayn moliyaviy platformalar boshqaruv tizimlarining moslashuvchanligini oshirib, real vaqt rejimida tahlil olib borish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalarning integratsiyasi iqtisodiy rivojlanishda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon korxonalar va davlat boshqaruvi tizimlarida ochiqlikni kuchaytirib, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari oshadi hamda zamonaviy raqamli infratuzilma shakllanadi. (1-rasmga qarang)

1-rasm. Innovatsion menejment va FinTech integratsiyasi²²



²² Muallif ishlanmasi



Mazkur model raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligida innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalar integratsiyasining konseptual mexanizmini ifodalaydi. Sxemaning markazida "Innovatsion menejment va FinTech integratsiyasi" joylashgan bo'lib, u tizimning asosiy yadrosi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yadro atrofida beshta muhim tarkibiy element o'zaro bog'langan holda tasvirlangan.

Birinchidan, raqamli boshqaruv platformalari ishlab chiqarish, logistika va moliyaviy jarayonlarni yagona axborot makonida birlashtirish orqali boshqaruvning shaffofligi va tezkorligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, FinTech yechimlari (raqamli to'lovlar, onlayn kreditlash, agro-sug'urta, kraudfanding) moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtiradi hamda moliyaviy oqimlarning samarali harakatini ta'minlaydi.

Uchinchidan, data-driven boshqaruv elementlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish orqali strategik va operativ qarorlar qabul qilish sifatini oshiradi.

To'rtinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi raqamli ko'nikmalarga ega agrar menejerlar va moliyaviy mutaxassislarni shakllantirish orqali innovatsion muhitni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, huquqiy qo'llab-quvvatlash integratsiya jarayonining barqarorligini ta'minlab, raqamli infratuzilma va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish uchun normativ asos yaratadi.

Modeldan ko'rinadiki, ushbu elementlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining rivojlanishi boshqasining samaradorligini oshiradi. Integratsiya tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgandagina maksimal natija beradi.

Shunday qilib, taqdim etilgan model qishloq xo'jaligida innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalarni integratsiyalash kompleks, ko'p omilli va o'zaro bog'liq jarayon ekanligini ko'rsatadi. Raqamli boshqaruv platformalari, FinTech xizmatlari, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, malakali kadrlar va mustahkam huquqiy baza yagona tizim sifatida faoliyat yuritganda agrar sohaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

Demak, ushbu model agrar tarmoqda innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy-amaliy asosini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlil qishloq xo'jaligida innovatsion menejment va moliyaviy texnologiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik agrar sohani rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur integratsiyani chuqurlashtirish qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 5 oktyabr). *"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida* [PF-6079-son Farmon]. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://old.uzspace.uz/oz/documents/view/402>



2. [Калмуратов Б.С., Назарбаев О., Аллашева Н.А. Современное состояние инновационной системы развития промышленности Республики Каракалпакстан // Проблемы современной экономики. Евроазиатский международный научно-аналитический журнал Российской Федерации Санкт-Петербургский экономический университет, 2024 год, №3\(91\)ю ст 151-154\(08.00.00; №21\).](#)
3. **Qalmuratov, B. S., & Babanazarova, S. K. (2025).** *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat majmuasi tizimini boshqarishning nazariy asoslari. Innovations in Science and Technologies*, 2(7), 262–273. <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/1189>
